



Morphological characteristics of sports terminology in English and Uzbek

Rashidbek KURBANIYAZOV¹

Urgench State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form

15 October 2025

Accepted 15 November 2025

Available online

05 Desember 2025

Keywords:

sports terminology,
morphology,
affixation,
compounding,
borrowing,
abbreviation,
adaptation,
English language,
Uzbek language,
terminological system,
lexical units.

ABSTRACT

This article examines the morphological structure of sports terms in English and Uzbek, the mechanisms underlying their formation, and the specific features of the terminological systems of both languages. As the field of sports continues to develop globally, the emergence of new terms, their formation through morphological models, and their adaptation within the linguistic system represent an important scholarly issue. The study provides a comparative analysis of processes such as affixation, compounding, abbreviation, borrowing, and semantic extension in sports terminology. In addition, the article highlights examples of modern sports terms borrowed from English into Uzbek, illustrating their morphological transformation and adaptation. The findings offer practical value for understanding trends in the development of sports terminology, improving translation practices, and compiling bilingual terminological dictionaries.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6-pp46-51>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz va o'zbek tillarida sport terminlarining morfologik xususiyatlari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

sport terminologiyasi,
morfologiya,
affiksatsiya,
kompozitsiya,
o'zlashma,
qisqartmalar,
adaptatsiya,
ingliz tili,

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida sport terminlarining morfologik tuzilishi, ularning shakllanish mexanizmlari hamda har ikki til terminologiyasining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Sport sohasi global miqyosda faol rivojlanayotgani sababli turli tillarda yangi terminlarning paydo bo'lishi, ularning morfologik modellar asosida shakllanishi va til tizimiga moslashuvi muhim ilmiy masala hisoblanadi. Tadqiqotda affiksatsiya, kompozitsiya, qisqartmalar,

¹ Teacher, Urgench State University. E-mail: kurbaniyazovrashidbek@gmail.com

o'zbek tili,
terminologik tizim,
leksik birliklar.

o'zlashmalar va semantik kengayish kabi jarayonlarning sport terminologiyasida tutgan o'rni qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan zamonaviy sport atamallari, ularning morfologik transformatsiyasi va adaptatsiyasi misollar orqali yoritiladi. Maqola natijalari sport terminologiyasi rivojlanish tendensiyalarini tushunish, tarjima jarayonlarini takomillashtirish hamda ikki tilli terminologik lug'atlar yaratishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Морфологические особенности спортивных терминов в английском и узбекском языках

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

спортивная терминология,
морфология,
аффиксация,
композиция,
заимствование,
аббревиация,
адаптация,
английский язык,
узбекский язык,
терминологическая
система,
лексические единицы.

В данной статье анализируется морфологическая структура спортивных терминов в английском и узбекском языках, механизмы их формирования, а также особенности терминологических систем обоих языков. Поскольку спортивная сфера активно развивается в глобальном масштабе, появление новых терминов, их образование на основе морфологических моделей и адаптация в языковой системе представляет собой важную научную проблему. В исследовании сравнительно рассматриваются такие процессы, как аффиксация, композиция, аббревиация, заимствования и семантическое расширение. Кроме того, освещается морфологическая трансформация и адаптация современных спортивных терминов, вошедших в узбекский язык из английского, с приведением конкретных примеров. Полученные результаты имеют практическое значение для понимания тенденций развития спортивной терминологии, совершенствования переводческого процесса и создания двуязычных терминологических словарей.

Tilshunoslikda sport terminlari va tilini tadqiq qilish jarayonida talabalar va mutaxassislar lug'at boyliklarini tez sur'atlarda oshirib borishmoqdalar. Bundan tashqari, lug'at boyligini faqat miqdoriy jihatdan emas, balki sifat jihatdan ham boyitish, mavjud so'z boyligidan har qanday vaziyatda faol foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish zarur. Har qanday tilida so'zlovchilar o'z tilidagi barcha so'z yasash vositalari va modellardan erkin foydalanib, chet tilini o'rganuvchilar esa faqat o'zlashtirgan lug'at birikmalari bilan cheklanadi va so'z yasash qoidalari asosida yangi leksik birliklar yaratishi juda kam uchraydi. Shu bois, sport terminologiyasi tadqiqida ham tilining so'z yasash modellari va qoidalarini egallash – o'rganilayotgan til lug'atini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning zaruriy shartlaridan xabardor bo'lish zarurati tug'iladi. Sport sohasi bilan bog'liq atamalarni chuqur o'rganish, so'z yasash usullarini egallash va lug'at boyligini ko'paytirish ko'p sonli so'zlarni yod olishdan ko'ra tezroq va samaraliroqdir. Shuningdek, notanish so'z yoki iboraning mazmunini tushunish, uning so'z yasash namunasi (prefiks, suffiks yoki infiks) til instinktini rivojlantirishda yordam beradi [1].

Bugungi kunda dunyodagi barcha sport turlari o'ziga xos leksik birliklar va soha terminlariga ega to'liq ro'yxatga ega. Bu o'rganuvchiga mavjud so'z yasash vositalaridan foydalanib, o'z bilim doirasida mustaqil tarzda ayrim leksik birliklarni (lug'atdan foydalanmasdan) shakllantirish imkonini beradi, so'z yoki ibora yaratish jarayonida ishtirok etishga undaydi. Bundan tashqari, chet tilini o'rganishni qiziqarli va ijodiy jarayonga aylantiradi va o'quvchining til o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

Sportga oid leksika va terminologiya tilshunoslikda yangilik bo'lmagan mavzudur. Yangi sport turlarining paydo bo'lishi natijasida sport lug'atining mazmuni doimiy ravishda yangilanib boradi, turli xil sport lug'atlari yaratilmoqda (bir, ikki yoki undan ortiq tillardagi leksik birliklarni o'z ichiga olgan lug'atlar). Sport leksikasining mazmuni juda xilma-xildir. Birinchidan, bu umumiy foydalaniladigan leksikadir (ona tilida so'zlovchilarning barchasiga tushunarli va ular tomonidan kundalik hayotda faol qo'llaniladi), ikkinchidan, bu professional terminologiyadir, uchinchidan, faqat shu sport turi bilan shug'ullanadigan tor doiradagi kishilargagina tushunarli bo'lgan leksikadir [2].

Tadqiqot davomida sport terminologiyasiga oid leksikani tasniflash to'rtta mezoniga asoslanishini ko'rdik:

- morfologik tuzilma;
- tarkibiy qismlar soni;
- semantik xususiyatlari;
- sintaktik bog'lanish.

Sport terminlarini morfologik jihatdan tahlil qilishdan oldin, ularni tuzilishiga qarab term so'z va term-so'z birikmalari sifatida ajratib o'rganish zarur deb topdik. Avvalo, sportga oid term-so'z leksik birliklarini (ular sport terminologiyasining 45 foizini tashkil etadi) morfologik tuzilmasi nuqtayi nazaridan tadqiq qilinganda – bunda oddiy (43%), yasama (39%) va murakkab (11%) leksik birliklar ajratib olindi. Oddiy leksik birliklar – bu bitta morfemaga ega bo'lgan birliklardir. Masalan: *ball* – *koptok*, *king* – *qirol*, *queen* – *qirolicha*, *bishop* – *fil* (*shaxmat donasi*), *side* – *maydonning biror tomoni*, *cue* – *kiy* (*snuker va bilyardda ishlatiladigan tayoqcha*), *fin* – *suzgich*, *final* – *final*,

back – *bel*, *punt* – *to'pni urish harakati*, *blade* – *pichoq*, *deck* – *paluba*, *star* – *yulduz* (*mashhur sportchi*) va hk.

Sport terminlarini so'z turkumlariga qarab tasniflaganimizda, ularning aksariyati ot so'z turkumiga mansub ekanini ko'rdik (90 %). Bundan tashqari, grammatik jihatdan ot so'z turkumiga mansub bo'lgan quyidagi otlar har doim ko'plik shaklida qo'llanadi. Masalan: *doors* – *darvozalar*, *boards* – *tomonlar*, *corners* – *burchaklar*, *laces* – *bog'ichlar*, *pants* – *reytuz* (*tor*, *sirma*, *yopishib turadigan shim*), *shorts* – *shortiklar*, *kalta* *ishtonlar*, *socks* – *getralar*, *paypoqlar*.

Qolgan 8 foizini esa boshqa so'z turkumlari tashkil etadi.

Keyingi navbatda yasama atamalar va leksik birliklar ko'rib chiqiladi. T.I Vendina ta'kidlaganidek, har qanday tilning lug'at boyligida asosiy va yasama so'zlarning o'zaro bog'liqligi xalqning turli sohalarga bo'lgan qiziqishini anglash imkonini beradi [3]. Har qanday soha terminologiyasida ko'p komponentli atamalar va leksik birliklarning o'rni beqiyos ekanligini aytish mubolag'a bo'lmaydi. Ularning paydo bo'lishi ma'lum bir sohada qo'llanilishi va ilgari mavjud bo'lgan tushunchalar asosida mantiqan yangi tushunchalarni ifodalash zarurati bilan bog'liq.

Tuzilishi nuqtai nazaridan, yangi atama odatda asosiy mohiyatni ifodalovchi atama bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni yangi atama tarkibiga asosiy atama komponent sifatida kiradi. Shuning uchun biz yangi atama fundamental va shakliy-tuzilma jihatdan shakllangan deb hisoblaymiz. Derivatsiya – bu affikslar (qo'shimchalar) yordamida yangi so'z yasash jarayonidir (masalan: sport – sportchi). Derivatsiya – bu ikkilamchi shakllanish hodisasi bo'lib, uning natijasida yangi birliklar til tizimidagi boshqa birliklar bilan turli paradigmatic munosabatlarga kiradi. Terminologiya doirasida bu hodisa avvalo mantiqiy munosabatni shakllantiradi [4].

Bitta terminologik tizimdagi hosila so'zlar va asosiy atamalar o'zaro mantiqiy bog'liqlikka ega bo'lganligi sababli ular shaklan ham bog'langan bo'ladi. Shu sababli yangi birlik va asl birlik o'rtasidagi hosila munosabatlarini o'ziga xos paradigmatic munosabat sifatida ko'rish mumkin. Agar ikki tildagi birliklar shakl va semantika (mazmun) nuqtayi nazaridan umumiy elementga ega bo'lsa, ulardan biri ikkinchisi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.

Sport sohasiga oid so'zlarni yasashda qo'shimchalar yordamida hosil qilingan leksik birliklar. Bu usulda **-ing**, **-ion**, **-er/-or** qo'shimchalari so'z yasashda sermahsul hisoblanadi. Masalan:

-ing: *dribbling – dribling, running – yugurish, bowling – bo'ling, autoracing – avtopoyga, diving – suvga sho'ng'ish, yachting – yelkanli sport, jumping – uzoqlikka sakrash, boxing – boks, mountaineering – toqqa tirmashib chiqish..*

-ion: *competition – musobaqa, substitution – o'yinchi almashinuvi, suspension – diskvalifikatsiya, intermission – muzni ta'mirlash uchun xokkeyda tanaffus, obstruction – to'sqinlik, rotation – o'yinchi o'rnini almashtirish, navigation – navigatsiya.*

-er /-or: *flipper – oyoq uchun rezina suzgich, diver – g'avvos, runner – yuguruvchi, batter – zarbani qaytaruvchi (beysbol), bowler – boulingchi, server – xizmat ko'rsatuvchi sportchi, climber – toqqa tirmashib chiquvchi (alpinist), leader – musobaqadagi yetakchi, attacker – hujumchi, neck and throat protector – iyak va tomoq himoya vositasi (xokkey).*

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, **-ing**, **-ion**, **-er/-or** qo'shimchalari bilan yasalgan atamalar va leksik birliklar ingliz tilida so'z yasashda sermahsul (produkt) hisoblanadi. Quyida esa sport sohasiga oid so'zlarni yasashda kamroq mahsuldor (kam qo'llaniladigan) qo'shimchalarni keltirish zarur deb topildi:

-ist: *cyclist – velosipedchi, canoeist – kanoechi (eshkak eshish sporti bilan shug'ullanuvchi), judoist – dzyudochi, alpinist – alpinist.*

-ship: *championship – chempionat, membership – a'zolik*

-ment: *equipment – anjom, placement – joylashuv o'ri, movement – harakatlanish.*

-ee: *referee – hakam, absentee – biron sabab bilan jamoa tarkibida bo'lmagan o'yinchi.*

-ance: *appearance – paydo bo'lish, (make an appearance – muz maydonida ko'rinish berish, o'yin maydoniga chiqish), attendance – jamoaning musobaqada qatnashuvi.*

2. Sport sohasi bilan bog'liq so'zlarni prefikslar yordamida yasash.

Masalan:

out-: *outsprint – sprint yugurishida o'zib ketmoq, outplay – o'yinda g'alaba qozonmoq, outclass – ustunlikka ega bo'lmoq;*

over-: *overjump – sakrab o'tmoq, overhand – to'pni qo'ldan tepada oshirib uzatish, overall – mutlaq, absolyut, overtime – qo'shimcha vaqt;*

up-: *upright – darvoza to'sini;*

inter-: *interchange – o'yinchilarning almashinuvi;*

mid-: *midfielder* – yarim himoyachi, *midgame* – o'yinning yarmi, musobaqaning o'rtasi;

dis-: *dismount* – (otdan yoki jihozdan) tushmoq;

fore-: *forecheck* – xokkeyda raqibning himoya hududida bosim o'tkazish, himoyaviy harakatlar;

back-: *backcourt* – himoya maydoni (basketbol), *backhand* – chap qo'ldan yoki chap tomondan berilgan zarba (tennis);

under-: *undergrasp* – pastdan ushlab olish;

mis-: *miscue* – mo'ljaldan adashmoq, noto'g'ri zarba berish.

3. Yuqorida keltirilgan ikki usuldan tashqari, sportga oid ayrim atamalar va leksik birliklar noodatiy prefiks va suffikslar yordamida ham yaratilgan. Quyida sport sohasi bilan bog'liq so'zlar va atamalarning ba'zilar shunday prefiks va suffikslar asosida hosil qilinganiga misollar keltiramiz:

infighting – kurash, bellashuv, jang; *outsider* – autsayder (musobaqada eng orqada qolgan o'yinchi yoki jamoa); *outfielder* – outfilder, himoyachi, tashqi maydon o'yinchisi (futbol); *all-rounder* – ko'p kurashchi, o'n kurashchi (har tomonlama sportchi) [5].

Ingliz va o'zbek tillarida sport terminlarining morfologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish ushbu sohada terminologik tizimning shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglash imkonini berdi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, sport terminologiyasi har ikki tilda ham faol dinamik jarayon bo'lib, global axborot oqimi, xalqaro musobaqalar, ommaviy sport madaniyatining kengayishi hamda fan-texnika taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir.

Ingliz tilida sport terminlari, asosan, affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya, qisqartmalar va blending kabi morfologik modellar asosida shakllanadi. Bu jarayon tilning analitik xususiyatlari bilan uyg'un bo'lib, sport leksikasida sodda, ixcham va funksional birliklarning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. O'zbek tilida esa sport terminlarining shakllanishi ko'p jihatdan affiksatsiya, tarjima yo'li bilan semantik moslashuv, fonetik-adaptiv o'zlashtirish jarayonlari orqali amalga oshadi. Bu hol o'zbek tilining agglutinatив xususiyatlari va milliy til tizimi talablaridan kelib chiqadi.

Tahlillar ingliz tilidan o'zbek tiliga kirib kelgan atamalarning katta qismi to'g'ridan-to'g'ri o'zlashma sifatida qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Masalan, *boxing*, *penalty*, *doping*, *fitness*, *trainer* kabi terminlar o'zbek tilida fonetik va morfologik moslashuv darajasiga qarab turlicha shakl kasb etadi. Bunda terminologik moslashuv jarayonining izchil emasligi ayrim terminlar tafakkurida ikki variantlilik (*trener* – murabbiy, *penalti* – jarima maydoni zarbasi) holatini yuzaga keltiradi. Bu esa kelgusida terminologik me'yorlashtirish va lug'atshunoslik ishlarining dolzarbligini ko'rsatadi.

Har ikki tildagi sport terminologiyasining o'xshash jihati – zamonaviy kommunikatsiyada funksionallik, aniqlik va iqtisodiylik tamoyillariga asoslanishidir. Farqli jihati esa til strukturasi bilan belgilanadi: ingliz tilida ko'proq strukturaviy ixchamlashuv, o'zbek tilida esa grammatik shakllar orqali kengayish xarakterlidir.

Umuman olganda, sport terminlarining morfologik xususiyatlarini chuqur o'rganish lingvistika, tarjimashunoslik, sport jurnalistikasi hamda ikki tilli terminologik lug'atlar yaratishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot natijalari sport terminologiyasini izchil

standartlashtirish, yangi o'zlashmalarni ilmiy asosda baholash va ularni til tizimiga mos ravishda kiritish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Cabré, M. Teresa. "Theories of terminology: Their description, prescription and explanation". Terminology, 9(2), 2003. – P. 163-199
2. <https://scientists.uz/uploads/2024011/C-10.pdf>
3. Вендина Т.И. Словообразование как источник реконструкции языкового сознания // Вопросы языкознания. – 2002. -№4. – С. 42-77
4. Aronoff, M., & Fudeman, K. What is morphology-2nd ed. (2nd ed.). United Kingdom: Blackwell Publishing. 2011. – P. 57.
5. Abdumajitov Kh.A. Morphological formation of sports terms in English and Uzbek languages. Science and innovation international scientific journal volume 3 ISSUE 11. ISSN: 2181-3337 | scientists.uz. 2024. – P. 53-54.